

See discussions, stats, and author profiles for this publication at: <https://www.researchgate.net/publication/360069088>

# FARG'ONA VILOYATIDA EKOTURIZMNI SHAKLLANTIRISH VA UNING KELAJAK ISTIQBOLLARI

Conference Paper · December 2015

---

CITATIONS

0

READS

8

2 authors, including:



Odiljon Tobirov

Gulistan State University

36 PUBLICATIONS 2 CITATIONS

SEE PROFILE

Some of the authors of this publication are also working on these related projects:



Geography, ecology, tourism and education [View project](#)

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

ЎЗБЕКИСТОН ГЕОГРАФИЯ ЖАМИЯТИ  
НАМАНГАН ВИЛОЯТИ БЎЛИМИ

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
ГЕОГРАФИЯ КАФЕДРАСИ

**ФАРГОНА ВОДИЙСИ  
ГЕОГРАФЛАРИ УЮШМАСИНинг  
ИЛМИЙ –АМАЛИЙ СЕМИНАРИ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**ЎЗБЕКИСТОН ГЕОГРАФИЯ ЖАМИЯТИ  
НАМАНГАН ВИЛОЯТИ БЎЛИМИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
ГЕОГРАФИЯ КАФЕДРАСИ**

*География кафедрасининг 40 йиллиги ва  
география фанлари номзоди, доцент  
Т.Н.Маллабоев таваллудининг  
75 йиллигига багишланади*

**ФАРГОНА ВОДИЙСИ ГЕОГРАФЛАРИ  
УЮШМАСИНИНГ ИЛМИЙ –АМАЛИЙ СЕМИНАРИ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(Наманган, 12 декабрь, 2015 йил )**

**Наманган-2015**

Энг совуқ ва энг иссиқ ойларнинг ҳаво ҳарорати орасидаги ҳарорат амплитудаси иқлимининг муҳим характеристикиси хисобланади. Юкорида таъкидлаб ўтганимдек энг иссиқ ва энг совуқ йил 2008 йилга тўғри келади. Ҳаво ҳарорати амплитудаси Фарғона шахрида  $49,7^{\circ}\text{C}$ , Андижонда  $46,9^{\circ}\text{C}$ , Наманганда  $48^{\circ}\text{C}$  га тенгдир.

Маълум жойнинг ҳаво ҳарорати режими тадқиқ этилаётганда июл ва январ ойларида ҳаво ҳароратларининг даврий тебраниши ва ўзгарувчанлигини албатта ҳисобга олиш зарур. Чунки энг иссиқ ва энг совуқ ойларда ҳаво ҳароратлари давр оралиғида маълум бир қийматлар орасида тебранади, кўтарилади ёки пасайиб боради. Бундай иқлим ҳодисаси турли омилларга боғлиқ равишда (жойнинг физик-географик ўрни, ороғрафияси, релефи, атмосфера сиркуляцияси, микроиқлимиш шароитлар ва бошқалар) турлича шаклланади.

Фарғона шахрида июл ойининг ўртача кўп йиллик ҳаво ҳарорати  $27,1^{\circ}\text{C}$ , Андижон шахрида  $27,5^{\circ}\text{C}$ , Наманган шахрида  $27,7^{\circ}\text{C}$  бўлган. Ўтган давр оралиғида Фарғонада ҳаво ҳарорати (июл

Фойдаланилган адабиётлар:

- Глазирин Г.Е., Чаничева С.Г., Чуб В.Е. «Ўзбекистон иқлимининг қисқача очерки», Ташкент, 1999.
- Никулина С.П., Спекторман Т.Ю., Субботина О.И., Чанъчева С.Г. Оценка возможных изменений основных климатических характеристик на территории Узбекистана //Метеорология и гидрология.-1999. -№ 9. – С. 58-65.
- Чуб В.Э. Изменение климата и его влияние на природно-ресурсный потенциал Республики Узбекистан. - Ташкент: САНИГМИ, 2000. – 252 с.

## FARG'ONA VILOYATIDA EKOTURIZMNI SHAKLLANTIRISH VA UNING KELAJAK ISTIQBOLLARI

*Abduvaliyev H., Tobirov O.Q., Mahmudov B. X. (FarDU, QDPI )*

Hozirgi kunda ekoturizmga har qachonidan ham talab katta. Bu dunyoning barcha davlatlariga tegishli bo‘lib, faol dam olishning bir turi, unga ko‘ra inson o‘z sog‘ligini tiklabgina qolmay balkim, bir qancha estetik hissiyotlar oladi. Hozirgi kunda ekoturizm eng rivojlangan dam olish va sport turi ham hisoblanib, turizmning eng rivojlangan sohasiga aylanmoqda. Ekoturizmning maqsadi hozirgi va kelajak avlodlarning ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta’milash uchun tabiatdan turistlik yo‘nalishda oqilona foydalanishdan iborat.

ойида)  $0,2^{\circ}\text{C}$  га кўтарилиган. Андижон ва Наманган шаҳарларида ҳаво ҳарорати (июл ойида)  $0,2-0,3^{\circ}\text{C}$  га пасайган.

Январ ойининг ўртача кўп йиллик ҳаво ҳарорати Фарғона шахрида  $0,49^{\circ}\text{C}$ , Андижон шахрида  $0,26^{\circ}\text{C}$ , Наманган шахрида  $0,58^{\circ}\text{C}$  ни ташкил этади. Ўтган давр оралиғида шаҳарларда ҳаво ҳарорати  $0,8-1,2^{\circ}\text{C}$  га кўтарилиган.

Шаҳарларда ҳавонинг энг юқори ҳароратлари энг зич жойлашган ва баланд бинолар мавжуд қисмларида кузатилади. Бу ҳарорат ва атрофдаги қишлоқ жоининг фон ҳарорати орасидаги фарқ шаҳар иссиқлик оролининг интенсивлиги деб аталади.

Хулоса ўрнида: шаҳарларда ҳаво ҳарорати режими атрофдаги жойларга қараганда бирмунча мураккаб шароитларда шаклланади. Бунда шаҳар ичидағи бир қатор микроиқлимиш ва наноиқлимиш шароитлар катта таъсир кўрсатади. Шаҳарлар ҳаво ҳарорати режими ҳам ташки омиллар, ҳам атмосфера таркибининг ўзгариши, фаол қатлам характеристи, атмосфера сиркулясияси таъсирида исталган вақт масштабларида ўзгариши мумкин.

Hozirgi davrning muhim masalasi iqtisodiyotni rivojlantirish, aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilashdan iboratdir. Respublikamiz aholisining 50 foizdan ortiq qismi qishloq joylarida istiqomat qilishini inobatga olsak, ekoturizm mehnat resurslariga boy hisoblangan qishloq joylarida yangi ish o‘rinlarini ochish, qishloq aholisining farovon yashashini ta’milashda asosiy omil bo‘lib hisoblanadi.

Hususan, Farg’ona viloyatida ekoturizmni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki undagi landshaftlarni turli-

tumanligi markazdagi cho'llardan tortib, to maftunkor tog' cho'qqilarigacha barchani o'ziga jalg etadi. Tog'lardagi tez oqar va ba'zida kechuv qiyin bo'lgan daralarda raftlarda oqish (rafting)<sup>18</sup>, Janubiy Farg'onadagi balandligi 10 m keladigan dam olayotgan tuyalarni eslatuvchi ekzotik relyef shakllariga hamda "Yozyovon davlat tabiat yodgorligi" dagi ajoyib tabiiy qum massivida piyoda turlarni uyuştirish mumkin.

Ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha "O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish Kontseptsiyasi" qabul qilingan. Ushbu "Kontseptsiya" ning 1.4. bandida – ekoturizmning ijtimoiy-iqtisodiy masalalari echi-mini topishi lozim bo'lgan dolzarb masalalar sifatida qayd qilingan. Ular quyidagilar:

- Ekoturizm ob'ektlarida aholini ish bilan ta'minlash, ijtimoiy muhofaza qilish muammolarini hal qilish;
- Ekoturizm qadamjoylarida kichik va o'rta biznesni rivojlantirish orqali qo'shimcha ish o'rinxlarini yaratish, turistik infratuzilmalarini hosil qilish;
- Ekoturizmning jahon talablariga javob beraoladigan moddiy - texnik, axborot - tahliliy bazasini yaratish xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish;
- Ekoturizm maskanlarini elektr energiyasi va issiq suv bilan ta'minlash maqsadida ekologik toza, qayta tiklanuvchi muqobil energiya qurilmalari yordamida foydalanishni keng yo'nga qo'yish.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan masalalar Farg'ona viloyatida izchillik bilan yo'lga qo'yilsa o'zining kutilgan natijasini berishi lozim.

Ekoturizmning faqat foyda keltiradigan soha deb hisoblash mumkin emas. Bu faoliyat turi agar maqsadga muvofiq doirada amalga oshirilmasa, uning qoidalari va talarbalariga rioya qilinmasa tabiatga jiddiy salbiy ta'sir qilishi va noxush oqibatlarga olib kelishi tabiiy.

Farg'ona viloyatidagi milliy hunarmandchilik ancha keng rivojlanganligi tufayli uni ekoturizm bilan uyg'unlikda olib borish mumkin. Rishtonda avloddan-

avlodga o'tib keluvchi kulolchilik san'ati, Marg'ilonda atlas to'qish kabi milliy hunarmandchilik asrlar davomida taraqqiy etib kelmoqda.

Farg'ona viloyati aktiv sayyohlik yo'n-alishlariga ham ega. Farg'ona viloyatining geografik jihatdan qulay joylashganligi bu yerda zamonaviy qulaylik va yovvoyi tabiatning uyg'unlikka kirisha olishiga inkoniyat beradi. Hududda har qanday tabiat landschaftlarini; tog', vodiylar, cho'l, daryo va ko'lni uchratish mumkin.

Farg'ona viloyatida ekoturizmni rivojlantirish uchun tavsiyalar:

➤ Ekoturizm tushunchasi, mohiyati va uning turizm industriyasida tutgan o'rnini yoritish;

➤ Ekoturizmning rivojlanishi tabiatni asrashda samarali muqobil yo'l ekanligini yoritish;

➤ Farg'onaning ekoturistik salohiyati va imkoniyatlarini tahlil qilish;

➤ Ekoturizm taraqqiy etgan xorijiy davlatlarda ekoturizmning holatini tahlil qilish va ularning tajribasini o'rganish;

➤ Xorijiy davlatlar tajribasini Farg'ona viloyatida qo'llash va rivojlantirish yo'llarini yoritish;

Ekoturizm – Farg'onaning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish sohasida katta ahamiyatga ega. Bu tarmoqni rivojlantirishdagi asosiy yo'nalishlar xorijiy sayyoohlarni Ona Vatanimizning landshafti, hayvonot va o'simlik dunyosiga boy va betakror tabiatini bilan tanishtirish, xalqlar o'rtasidagi do'stlik aloqalarini bog'lash, mamlakatlar va turli xalqlarning bir-birlarini kengroq bilishlari, qirilib ketish arafasida turgan noyob hayvonot va o'simlik dunyosini saqlash va ko'paytirish maqsadida qo'riqxonalar, parvarishxonalar tarkibida va atrofida dunyo talablariga javob bera oladigan milliy tabiiy bog'larni yaratish loyihalarni ishlab chiqish, ularni amalga oshirish orqali muhofaza qilinadigan hududlarda ekoturizm obyektlarining moddiy – texnik bazasini yaratish uchun qo'shimcha chet el investitsiyalarini keltirishdan iborat.

Chet elliklarning mahalliy aholiga qaraganda bizning milliy an'analarimiz, tarixiy obidalarimizga qiziqishlari bir qadar yuqori. Lekin Farg'onaning ekoturistik

<sup>18</sup> Rafting – tog' daryolari bo'yicha mahsus moslamalar orqali suzishga yo'naltirilgan sayohat turi.

salohiyatini past deb bo'lmaydi. Faqatgina uning ochilmagan imkoniyatlarini rivojlantirish talab etiladi. Bunda demokratik prinsiplar va bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan erkin raqobat muhitini yaratish, ekologik – huquqiy mexanizmni ishlab chiqish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy aholining o'z yurti tabiatiga bo'lgan ishtiyoqining pastligi Farg'onada "O'lakashunoslik", "Geografiya", "Ekologiya" kabi fanlarning o'qitilishiga bolalarni yoshligidan qiziqtirishga yetarli darajada e'tibor berilmayotganlidadir. Shu bois mahalliy ekoturistlarning yangi o'zlashtirilmagan ekoturlarga qiziqishi kam va ular o'zi bilgan tabiiy muhitidan chetga chiqmaslikka harakat qiladilar. Ekoturistlarning ko'p qismini tashkil qiluvchi ekoturistlar – shaharliklar kam hollarda mahalliy aholi bilan bog'lanishadi yoki ularning ekoturist xizmatlardan foydalanishadi. Chet ellik mehmonlar esa qishloq aholisi ularning yashay tarzi, an'analari, madaniyatiga qiziqishadi.

Ekoturizm oqilona rivojlantirilsa, u ekologik inqiroz va iqlim o'zgarishlarining yechimini topishda juda muhim ahamiyat

kasb etishi mumkin. Buning uchun bugungi kunda viloyatimizda tabiiy resurs yetarli. Ulardan o'ta samaradorlik bilan foydalanish ekoturizmni ham boshqa sohalar kabi gullab yashnashida muhim o'rinni egallaydi. Bu masalaning muvaffaqiyatli hal etilishi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy muammolarning va ekologik ta'limning svilizatsiya darajasida hal etilishi bilan bir qatorda atrof muhitni muhofaza qilishga olib keladi.

Hozirgi vaqtida turistik resurslar orqali dam olishni tashkil qilish, insonning hayotiy kuchlarini tiklash, bo'sh vaqtidan unumli, to'g'ri foydalanishni ta'minlash mumkin. SHuningdek, turistik resurslardan oqilona foydalanish shaxsning rivojlanishida, barkamolligida, sayohatchining intellektual salohiyatining oshishida, asabiy-ruhiy holatini yaxshilashda, shaxs sifatida rivojlanishida, xalqaro, davlatlararo va shaharlararo munosabatlarning ijobjiy shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Undan tashqari, turistik resurslar turizmning ijtimoiy samaradorligi oshishini ham ta'minlaydi.

## O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

*Qo'ziboyeva O., Rejaboyev A. (QDPI)*

Ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik o'zgarishlar jarayonida mamlakatda ekoturizmning rivojlanishi muhim ro'l o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasining ko'pgina mintaqalaridagi tajribaning ko'rsatishicha, ekoturizm — bu ishchi o'rinalar sonini ko'paytirishga, tabiiy ekotizimlami tiklash va saqlashga ko'maklashuvchi ijobjiy ekobiznesdir, bu esa o'z navbatida ekoturizmni Markaziy Osiyoda keng tarqatish zarurligini ko'rsatadi. Shu o'rinda savol tug'ulishi mumkin ekoturizm mohiyati nimada deb ? "Ekoturizm" ya'ni turistlarni tabiatni ajoyib manzilgohlariga sayohatlar uytirish va tabiatdan estetik zavq olish va tabiiy landshaftlari bilan tanishtirish.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda ko'pgina sayyoqlik tashkilotlari O'zbekiston bo'ylab ekologik turizmni ishlab chiqishdi, shuningdek mamlakatda bevosita ekoturizm bilan shug'ullanadigan tashkilotlar tuzilmoqda.

Ana shunday tashkilotlardan biri «O'zbekturizm» Milliy kompaniyasi, Fridrix Ebyert nomli Fond(GFR) va Xalqaro «Ekosan» fondi rahbarligida o'tkazilgan «Ekoturizm va Buyuk Ipak Yo'li» 1-Xalqaro Konferyensiya tavsiyalariga ko'ra tuzilgan «Ekosan-tur» markazidir. Markaz faoliyatining rivojlanishiga sayyoqlik sohasining mutaxassislari, O'zbekistonning va boshqa Markaziy Osiyo davlatlarining tabiatni asrash tashkilotlari, maslahatchilar jalb qilingan. Mintaqalardagi ekoturizm obyektlarida faoliyat yurituvchi biznes tuzilmalar va mahalliy hokimiyat organlari, shuningdyek joylardagi o'z-o'zini boshqarish organlari ham jalb etildi.

Markaz faoliyatining rivojlanishiga 1999 yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan «2005 yilgacha bo'lgan davr mobaynida O'zbekistonda turizmni rivojlanishish Dasturi» ham yordam berdi. Ushbu Dasturga jahon madaniyati va

<b>Солиев Э.А., Мирзаахмедов И.К., Мирзаахмедов Ш.Ш.</b> Фарғона водийси шаҳарлари ҳаво ҳарорати режими ning ўзгарувчанлиги.....	74
<b>Abduvaliyev H., Tobirov O.Q., Mahmudov B. X.</b> Farg'ona viloyatida ekoturizmni shakllantirish va uning kelajak istiqbollari.....	76
<b>Qo'ziboyeva O., Rejaboyev A.</b> O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish masalalari.....	78
<b>Hoshimov A.N., Qo'chqarov O.</b> Orol dengizi halokati va uning salbiy oqibatlari.....	80
<b>Abduvaliyev H., Tobirov O.Q., Mahmudov B. X.</b> Ta'lim tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.....	82
<b>Abdinazarova H., Yuldasheva D., Akbarova M.</b> Ta'lim tizimida ekologik – barqaror taraqqiyot tushunchalarini o'quvchilar ongiga singdirishning ba'zi masalalari.....	84
<b>Бадалова М.А.</b> Амалий география фанида “Табиий географик жараёнлар” мавзусини ўқитишида маҳаллий материаллардан фойдаланиш.....	86
<b>Бердиев F., Отажонов Ш., Одашева Д.</b> Географик ахборот тизимларининг вужудга келиши ва ривожланиши.....	88
<b>Джўрабоева X.</b> “Материклар ва океанлар табиий географияси” курси бўйича айrim мавзуларни ўқитишида ўйинлардан фойдаланиш.....	91
<b>Мирзаахмедов X.С.</b> Мактаб география дарслкларини картографик материаллар билан таъминланиши бўйича айrim мулоҳазалар.....	93
<b>Mirzamahmdov O., Dehqonova SH.</b> Farg'ona vodiysi landshaftlari o'zgarishining ayrim jihatlari.....	95
<b>Mo'minov D., Abdunazarov L.</b> Geografiya ta'limining dolzarb masalalari.....	97
<b>Qo'chqarov O., Qo'chqorova K., Hoshimov A.</b> O'quvchilarga ekologik ta'lim tarbiya berish.....	99
<b>Аҳмадалиев Ю., Отакулов П., Маматисаков Ж.</b> Табиий ресурслардан фойдаланишд тарихий - географик ва маҳаллий хусусиятларни ҳисобга олиниши.....	103
<b>Жумаханов Ш.З., Макулов Ж.Т., Құдратова У. М.</b> Геосиёсатда давлат чегарасини белгилаш ва ўзgartиришнинг халқаро- хуқуқий асослари.....	105
<b>Махмудова М.Ж.</b> Ўзбекистонда хизмат кўрсатиш соҳаларини ривожлантиришнинг худудий хусусиятлари.....	110
<b>Атажонов М. Абдуллаев Ж.</b> Фарғона водийси аҳолисининг ўсиши ва унга хос хусусиятлар.....	112
<b>Абдуллаева Г.М., Хакимжонова Д.Ш.</b> Аграр соҳанинг худудлар миқиёсида тутган ўрни ва ривожланиши хусусида.....	113
<b>Абдурахмонов F., Юлдашева Н., Юсупчаева X.</b> Фарғона водийсида дәхқончиликда амалга оширилган хўжалик-маданий анъаналарининг маҳаллий хусусиятлари.....	116
<b>Баратов А.</b> Наманган вилоятда ирригация тизимини шакиллантириш, қайта куриш ва улардан самарали фойдаланиш масалалари.....	118
<b>Berdiev G', Rahimov N., Temirov B.</b> Aholi migratsion harakatiining o'zgarishlari.....	122
<b>Абдувалиев X.</b> Фарғона вилояти аҳолисининг фуқоролар йигинлари бўйича тақсимланиши.....	124
<b>Баратов А.</b> Наманган вилояти суғориш тарихи хақида қисқача мулоҳазалар.....	128
<b>Махмудова М.Ж.</b> Боғдорчилик ва узумчилик тармоқларида иқтисодий самарадорликни оширишнинг айrim жиҳатлари.....	130
<b>Abdinazarova H., Yuldashevay D.</b> Agroturizm va uni rivojlantirishning ayrim masalalari.....	132
<b>Жумаханов Ш.З., Сиддиқов С.Ш.</b> Наманган вилоятида аҳоли қўргонлари шаклланишининг тарихий-географик омиллари.....	135
<b>Мўминов М (НамДУ), Мўминов У.М</b> Аграр секторда кооперация муносабатлари ривожланишининг жаҳон тажрибаси.....	140
<b>Jumaxanov Sh.Z., Jo'raxo'jayev T.X.</b> Iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirishda mintaqaviy yondashuv: mohiyati va mazmuni.....	142